

## **“QIYOS” KONSEPTINI VOQELANTIRUVCHI VOSITALARNING SEMANTIK TURLARI HUSUSIDA BA’ZI MULOXAZALAR.**

**Ashurov Mo‘min Umarjonovich**

Andijon davlat chet tillari instituti,

ingliz tili amaliyoti kafedrası,

[muminjonashurov@gmail.com](mailto:muminjonashurov@gmail.com)

UDK 415.2

Tel: +998932552076

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada “qiyos” konseptini voqelantiruvchi vositalarning semantik turlariga oid masalalar tahlil qilingan va shu hususda ayrim olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashishlar mazkur konsept misollari orqali yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *mantiqiy taqqoslash, konseptual semantikasi, verbalizator, universal, unikalija, antropotsentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются вопросы, связанные с семантическими типами инструментов, реализующих понятие «сравнение», а также на примерах этого понятия освещаются теоретические подходы, выдвигаемые некоторыми учеными в этом отношении.*

**Ключевые слова:** *логическое сравнение, концептуальная семантика, вербализатор, универсальность, уникальность, антропоцентрический подход, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика, психолингвистика.*

**Abstract:** *In this article, the issues related to the semantic types of tools that realize the concept of "comparison" are analyzed, and the theoretical approaches put forward by some scientists in this regard are highlighted through the examples of this concept.*

**Key words:** *logical comparison, conceptual semantics, verbalizer, universal, uniqueness, anthropocentric approach, cognitive linguistics, pragmalinguistics, psycholinguistics.*

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda “qiyos” konseptining struktural-semantikasi tahlili chuqur va murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Buning sababi sifatida shuni keltirish mumkinki, har qanday matnni asl mazmuni konkret holatiga tenglab aks ettirilishi va tushunilishiga xizmat qiladigan vositalar bu “qiyos” lash munosabatini aks ettiruvchi lisoniy vositalarning barcha til birliklarida namoyon bo‘lishi va ishtirok etishidir. Fikrimizni mutanosib isbotini ba’zi manbalarda quyidagi ko‘rinishda uchratish mumkin. “Qiyoslash kategoriyasidan, keng ma’noda har bir fan o‘z maqsad va vazifalarini aniqlashda foydalanishi mumkin. Masalan, falsafada ikki ob’ektni bir-biriga qiyoslash orqali ularning o‘xshash va farqli tomonlarini belgilash bilan umumlashmalar chiqarish<sup>1</sup>, logikada bu alohida bir mantiqiy usul sifatida ikki yoki undan ortiq mavhum tushunchalarni konkretlashtirish uchun ishlatiladi<sup>2</sup>.

A. Spirkianing fikriga ko‘ra tilshunoslik ham chog‘ishtirma, kiyosiy, analogiya kabi metodlar bilan ish ko‘radi, “qiyos” o‘zining konkretlashtirish funksiyasi bilan har bir fanda qo‘llana oladi<sup>3</sup>. Ushbu fikrdan “qiyos” konseptini lingvokognitiv maqomi keng ekanligi bois uning stuktur-semantik tuzilma holati murakkab ekanini tushunish mumkin.

Tilshunos olim M. Mukarramov “qiyos” konsepti verbalizatorlarining struktural-semantik turlari haqida: “Qiyos” (o‘xshatish)ning lingvistik xususiyatlarini, asosan, o‘xshatish (qiyos) komponentlari: sifatlash, metaforaga munosabati, bir-biriga ko‘chishi, farqi, mubolag‘a va litota, xalq maqollari, aforizmlar va topishmoqlari o‘xshatishli bo‘lishligi, ularda qo‘llanilgan o‘xshatish (qiyos)ni ifodalovchi elementlar; o‘xshatishning ma’nosiga, komponentlarning

---

<sup>1</sup> Философский словарь, М., 1968, стр. 340

<sup>2</sup> Большая советская энциклопедия, т. 40, .\., 1957, стр. 349.

<sup>3</sup> А. С п и р к и а, Курс марксистской философии, М. 1966. стр. 237.

tarkibiga va badiiy nutqda qo'llanishiga ko'ra turlari; o'xshatishni ifodalovchi affikslar, leksik vositalar, ularning semantikasi va sinonimik munosabatiga ega"<sup>4</sup> deya ta'kidlaydi.

Qiyoslashda eng muhim narsalardan biri leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning belgilari hisoblanadi. Misol uchun, *Bobur rangi yerday o'ngib ketgan Mohim begimni ko'rgandayoq, yuragi "shuv" etib ketdi. Yigitlar ko'tarib kelayotgan taxtiravon uning ko'ziga tobutday sovuq ko'rindi.* ( P.Qodirov "Yulduzli tunlar" 298 bet.)

degan gapda Moximbegim va yer biri-biriga rangi o'ngish belgisi orqali chog'ishtirilgan.

Ushbu misolni qiyoslashda uch unsur (asos) e'tiborga olinadi: 1) o'xshatilayotgan predmet yoki ob'ekt – Mohimbegim, 2) o'xshayotgan predmet- yer, 3) o'xshashlik belgisi – o'ngishdir. Shu uch asosdan biri ishtirokisiz qiyoslash munosabati amalga oshirilmaydi. Misol uchun, —*Mohimbegim yerday* degan jumlada semantik to'liqsizlikni ko'rish mumkin. Ya'ni qiyoslash amalga oshmagan.

Biz quyida umumiy tilshunoslikda umum qabul qilingan qiyosning struktur jihatdan tarkibiy qismlarini turli olimlar tomonidan turlicha nomlanganligini ko'rib chiqamiz. V.V.Malkova rus tilidagi turg'un o'xshatishlarni quyidagi qismlar, ya'ni "qiyos sub'ekti, qiyos ob'ekti, qiyoslash asosi" ga ajratgan. N.Maxmudov esa o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarning to'rt unsuridan - o'xshatish sub'ekti, o'xshatish ob'ekti, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidan tarkib topishini aytib o'tgan<sup>5</sup>.

Tilshunos olim B V Tomashevskiy o'xshatiluvchi ob'ekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgilarini *predmet, obraz, belgi* termini bilan <sup>6</sup>; Yana bir tilshunos A. I. Yefimov o'xshatish asoslarini o'xshatish sub'ekti va o'xshatish ob'ekti, qiyoslash

---

<sup>4</sup> Мукаррамов М "Ўзбек тилида ўхшатишлар" Фан нашриёти. Тошкент 1976 5-бет

<sup>5</sup> Низомиддин Махмудов Дурдона Худойберганова ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати

тошкент «маънавият» 2013.

<sup>6</sup> Б В. Томашевский, Стилистика и стихосложение. Л . 1952.208—209 бетлар.

asosi deb <sup>7</sup> ; M. A. Shapiri esa o‘xshatish ob’ekti, o‘xshatish obrazi, o‘xshatish belgisi<sup>8</sup>; A. Sa’diy o‘xshatilgan, unga o‘xshatilgan, o‘xshash sifat <sup>9</sup> kabi termilar bilan nomlashgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan o‘xshatish komponentlari terminlari tahlilini bir oz mukammalroq va to‘liqroq shaklini Yo. Isxoqovning klassik adabiyot poetikasiga bag‘ishlagan maqolasida ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra Yo. Isxoqov o‘xshatish (qiyos, tashbeh)ning to‘rt asosini ko‘rsatadi: 1) mushabbax (o‘xshatilgan narsa), 2) mushabbaxunbeh (o‘xshayotgan narsa), 3) odati tashbeh (o‘xshatish vositalari), 4) vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi)<sup>10</sup>.

Ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra o‘xshatishniig uch komponentini alohida terminlar bilan ko‘rsatmay, faqat “o‘xshatish belgilari asosida qiyoslanishi” ma’qulroq deb talqin qilinadi. M.Mukarramov o‘zining “O‘zbek tilida o‘xshatishlar” kitobida o‘xshatishda uch komponent asosga olinishi maqsadga muvofiq ekanligi, chunki o‘xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa va hodisa o‘zining biror muhim belgi xususiyatlari bilan taqqoslanishi, ya’ni qiyoslash uchta leksik birliklarning o‘zaro munosabatidan yuzaga kelishini ta’kidlagan<sup>11</sup>. Biz ham olimni fikriga qo‘shilgan holda qiyoslashda struktur jihatdan uch komponent: o‘xshatiluvchi ob’ekt, o‘xshovchi ob’ekt va o‘xshovchi belgi bo‘lishini ma’qul ko‘ramiz.

Chunki qiyos konseptini ifodalovchi quyidagi *-day, -dek, -simon, na, kabi, singari, kabi* ko‘makchilari o‘xshovchi obrazni ifodalagan so‘zlar tarkibida yoki o‘zlari alohida so‘z holida shakllansada, mustaqil holatda semantik tuzilishga ega emas va qiyoslash ma’nosida to‘liqlik va aniqlik bo‘lishi uchun uchala komponent ishtirok etish zarurati yuzaga keladi.

---

<sup>7</sup> Л И Ефимов. Стилистика хулолсчтвенной речи, М, 1961, 491-бет

<sup>8</sup> М.А.Шапиро Структура сравнений, «Ученые записки Тнраспо-льской пед ин-т», вып. 5. Кишинев, 1958.

<sup>9</sup> А Саъдий. Амалий ҳам назарий адабиет дарслари (ўрта мактаблар учун дарлик, Тошкент 1925, 21-22-бетлар.

<sup>10</sup> Ё Исхоқов, Ташбех, «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали 1970 № 4

<sup>11</sup> Мукаррамов М “Ўзбек тилида ўхшатишлар” Фан нашриёти. Тошкент 1976 5-бет

Qiyoslash (o‘xshatish) uning tarkibidagi “o‘xshatma belgining” leksik birliklar bilan ifodalanishi yoki ularsiz ishlatilishiga ko‘ra “to‘liq” va “to‘liqsiz” o‘xshatishlarga bo‘linadi<sup>12</sup>.

To‘liq o‘xshatishlarda uch komponentning barchasi - o‘xshatiluvchi ob’ekt, o‘xshovchi obraz, o‘xshatma belgi lisoniy birliklar orqali ifodalanadi.

Misol uchun, *Qirg‘oqda qolgan uning bir necha yuz navkarlari Bobur ketidan intilgan yovning yo‘lini devorday to‘sib oldi.* (P.Qodirov “Yulduzli tunlar romani 260- bet”). Ushbu keltirilgan misolda o‘xshatiluvchi ob’ekt – navkarlar, o‘xshovchi obraz- devor, o‘xshatma belgi – to‘sib olish, ya’ni uchala komponent ham ishtirok etgan.

To‘liqsiz o‘xshatishlarda o‘xshatma belgi alohida leksik birlik orqali berilmaydi, balki uni o‘xshovchi obraz ma’nosidan tushunish mumkin<sup>13</sup>.

Misol uchun, *Ayni uzatiladigan paytlari, begim oy desa oydek, kun desa kundek edi.* (P.Qodirov “Yulduzli tunlar romani 59 bet”)

Ushbu gapda o‘xshatiluvchi ob’ekt – begim, o‘xshovchi ob’ekt- oy va kun lisoniy birliklari mavjud bo‘lib, o‘xshatma belgi ishtirok etmagan.

Adabiy tildagi qiyos konsepti semantik jihatdan inkor, kinoyali, chog‘ishtiruvli, satirik xarakterga ega bo‘ladi”<sup>14</sup>;

- **Inkor** qiyoslanishda ikki ob’ekt bir-biriga qarama- qarshi qo‘yish orqali ifodalanadi va inkor semantikasini ifodalovchi –emas, yo‘q kabi so‘zlar ishtirok etadi<sup>15</sup>.

Misol uchun: *Soch emas bu- sharshara, b-u sharshara.* (Nurali Qobil)  
*So‘zingiz chin, mavlono. Men ko‘rgan Rub‘i maskunda Hirotdak shahar yo‘qdir!* ( P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani.)

---

<sup>12</sup> Мукаррамов М “Ўзбек тилида ўхшатишлар” Фан нашриёти. Тошкент 1976 7-бет

<sup>13</sup> Кўрсатилган манба 7-8 бетлар.

<sup>15</sup> Кўрсатилган манба 29 бет

*Xon ko'rpa ustida emas, go'yo qon daryosi ustida o'tirganga o'xshardi. ( P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romani 194-bet)*

- **Kinoyali** qiyoslashda ikki ob'ekt to'g'ridan to'g'ri emas, avval hususiyati va o'xshashlik belgilari tasvirlanadi.

*Hammadan uning qomatini ayting? Afsuski, ming afsuski, qo'li ikkitada bo'lmasa eng chiroyli nasha chilimga o'xshar edi. (A.Qaxxor)*

- **Satirik** qiyoslashda mubolag'a va fantaziya orqali biror bir salbiy obrazning hulq-atvorlari hajvga olinadi:

*Ammo mo'yqalamda bo'yoq ko'proq ekan, quloq oldidagi soqol birdan kigizday qalinlashib ketdi. Behzod sog'tishi sug'urib olinayotgan odamday: — Ih! — dedi. ( P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romani 195-bet)*

- **Chog'ishtiruv** qiyoslashda ikki voqelik yoki ob'ekt tenglashtirish ma'nosida –sa,-gan,-day, affikslari va -bilan teng,- bu...-degani, degan gap, o'xshamoq ko'makchilari orqali ifodalanadi<sup>16</sup>.

*Onasining: «Sulh tuzing, binokor bo'ling!» — degani« kiyikday beozor yashang» degani edi. ( P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romani 51-bet).*

*Bu do'stni sotgan bilan teng.*

Qiyos konseptining semantik jihatdan ochib beruvchi yana bir turiga to'xtalib o'tish o'rinli deb o'ylaymiz. Bu turdagi o'xshatishlar ko'pincha sifat so'z turkumi va shunga yondosh til birliklaridan iborat bo'lib, qiyosning ijobiy va salbiy ma'no kasb etuvchi shakli hisoblanadi. Bunga misol qilib, nasriy va badiiy asarlardagi ijobiy va salbiy qahramon, personajlarga berilgan o'xshatishni olish mumkin.

Misol uchun ijobiy ma'noda : *oy, quyosh, mevali daraxtlar* kabi so'zlar bo'lsa, salbiy ma'noda *chayon, ilon, tulki, kaltakesak, kalamush, pashsha kabilar* ifodalanadi.

*Ayni uzatiladigan paytlari begim oy desa oydek, kun desa kundek ,*

*oqila- yu foziladirlar. ( P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romani 59-bet)*

---

<sup>16</sup> Кўрсатилган манба

Qiyos konsepti semantik maydonida yana bir muhim tur mavjud bo‘lib, ular konkret va abstrakt turlar deb nomlanadi.

**Konkret** qiyoslash (o‘xshatishda) da tabiatdagi bizga ma’lum ob’ektlar real narsa va hodisalarga qiyoslanadi. Konkret o‘xshatishlar ko‘rish, eshitish, bilish, maza-ta’m va teri-tuyg‘u sezgi organlarining biri asosida yuzaga keladi va ko‘pincha –day, -dek, -kabi, -singari, -o‘xshamoq ko‘makchilari bilan ifodalanadi.<sup>17</sup>

Biz ushbu turdagi o‘xshatishlarni quyidagicha nomlashga harakat qildik:

- 1) **Vizual** (ko‘rinishga oid) **qiyoslash**: *Faqat arkka yaqinlashganda chap tomonda ko‘ringan ulkan obidaning Amir Temur maqbarasi ekanini jangchining dubulg‘asiga o‘xshash gumbazning afsonaviy go‘zal taram-taramlaridan tanidi. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 62-bet)*
- 2) **Akustik** (eshitilishga yoki tovushga oid) **qiyos**: *Ovozi keksalarnikidek g‘ijirlab eshitilganini o‘zi ham sezdi-yu, qo‘shib qo‘ydi: — Men endi qarib qoldim. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 237-bet).*
- 3) **Hid bilishga oid qiyoslash**: *Boyagi go‘zal qiz Hirotning butun nafosatini o‘z jozibasi bilan birga mana shu gulga muattar hid kabi joylab berganga o‘xshar edi. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 179-bet).*
- 4) **Maza- ta’m bilishga oid qiyos**: *Shu sababli og‘izda eriydigan eng a’lo go‘shlar ham Fotima Sultonga ilitma ovqatdek mazasiz tuyulardi. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 14-bet)..*
- 5) **Fiziologik qiyoslash** (Teri-tuyg‘u organiga bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:)  
*Uning ketidan ergashgan yigirmatacha otliq navkarlari orasida peshonasi g‘urra bo‘lgan, yuzi bo‘zday oqargan Mamat ham bor edi. (P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 254-bet)*  
*Otboqar bostirmada davra qurib o‘tirgan sayislar,aravakashlar otboqarlar bo‘lsa izg‘irinda isitma tutganday titramoqda edilar*  
*(S. Ayniy).*

---

<sup>17</sup> Kўrsatilgan манба 26-бет

**Abstrakt qiyoslash (o‘xshatish)** – yozuvchi va so‘zlovchining xayoliy yoki tasavvuriy fantaziyasiga asoslangan bo‘ladi va ko‘pincha *nazarida, xayolida, aylanmoq, eslatmoq, tuyulmoq* kabi so‘zlar yordamida ifoda ettiriladi.

*Qosimbekning nazarida sallaga qadalgan yoqutlarning cho‘g‘day yonishi zaharli ilonning qizg‘ish ko‘zlari qonga to‘lib yonishiga o‘xshardi.*

*(P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani 211-bet).*

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A Sa‘diy. Amaliy ham nazariy adabiet darslari (o‘rta maktablar uchun darslik, Toshkent 1925, 21-22-betlar.
2. Mukarramov M “O‘zbek tilida o‘xshatishlar” Fan nashriyoti. Toshkent 1976 5-bet
3. M.A.Shapiro Struktura sravneniy, «Uchenye zapiski Tnrspo-lskoy ped in-t», вып. 5. Kishinev, 1958.
4. Nizomiddin Maxmudov Durdonaxudoyberganova o‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati toshkent «ma’naviyat» 2013.
5. P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romani. «Sharq» nashriyot-matbaa,aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2004
6. Yo Isoqov, Tashbex, «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali 1970 № 4
7. A. Spirskiy, Kurs marksistskoy filosofii, M. 1966. str. 237.
8. Bolshaya sovetskaya ensiklopediya, t. 40, .\., 1957, str. 349.
9. B V. Tomashevskiy, Stilistika i stixoslojenie. L . 1952.208—209 betlar.
- 10.L I Yefimov. Stilistika xulolshtvennoy rechi, M, 1961, 491-bet
- 11.Filosofskiy slovar, M., 1968, str. 340